

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA IMKONIYATI CHEKLANGAM BOLAJONLARGA MUSIQA FANIGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH VA MUSIQIY MA'NAVIYATINI O'STIRISH

Sattorova Go'zal Shukur qizi

G'ijduvon tuman 34-son MTM musiqa rahbari

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolajonlarning musiqaga bo'lgan qiziqishini shakllantirish va ularning musiqiy-ma'naviy rivojlanish jarayonini samarali yo'lga qo'yish masalalari yoritilgan. Musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan san'at turi sifatida nafaqat estetik zavq uyg'otadi, balki bolaning dunyoqarashi, nutqi, tafakkuri va ijtimoiy faolligini ham kengaytiradi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalarda musiqiy tarbiya ularga o'zini erkin ifoda etish, his-tuyg'ularini boshqalar bilan bo'lishish, ichki kechinmalarini yengib o'tish imkonini beradi.

Maqolada musiqiy mashg'ulotlarning turli shakl va usullari, jumladan qo'shiq aytish, musiqiy o'yinlar, ritmik harakatlar, musiqiy asboblarda chalish va tinglash faoliyati orqali bolalarning qiziqishini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogning individual yondashuvi, mehribonlik va sabr-toqati, inklyuziv ta'lim tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish orqali samaradorlikka erishish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, musiqa tarbiyasi, musiqiy qiziqish, musiqiy-ma'naviy rivojlanish, inklyuziv ta'lim, musiqiy o'yinlar, qo'shiq aytish, ritmik harakatlar, musiqiy asboblari, pedagogik yondashuv.

ПОВЫШЕНИЕ ИНТЕРЕСА К МУЗЫКЕ И РАЗВИТИЕ МУЗЫКАЛЬНО- ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы формирования интереса к музыке у детей с ограниченными возможностями в дошкольных образовательных учреждениях и организации процесса их музыкально-духовного развития. Музыка как вид искусства непосредственно воздействует на психику человека, пробуждает эстетическое восприятие, а также расширяет

кругозор ребёнка, его речь, мышление и социальную активность. Особенно для детей с ограниченными возможностями музыкальное воспитание является важным средством свободного самовыражения, передачи эмоций и преодоления внутренних переживаний.

В статье анализируются различные формы и методы музыкальных занятий, включая пение, музыкальные игры, ритмические движения, игру на музыкальных инструментах и слушание музыки как средство повышения интереса детей. Также подчеркивается значимость индивидуального подхода педагога, его доброжелательности и терпения, а также внедрение принципов инклюзивного образования для достижения эффективности.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети с ограниченными возможностями, музыкальное воспитание, музыкальный интерес, музыкально-духовное развитие, инклюзивное образование, музыкальные игры, пение, ритмические движения, музыкальные инструменты, педагогический подход.

ENHANCING THE INTEREST IN MUSIC AND DEVELOPING MUSICAL- SPIRITUAL CULTURE OF CHILDREN WITH DISABILITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

ANNOTATION

This article explores the issues of developing an interest in music among children with disabilities in preschool educational institutions and organizing the process of their musical and spiritual development. Music, as an art form, has a direct impact on the human psyche: it awakens aesthetic perception while expanding a child's worldview, speech, thinking, and social activity. For children with disabilities in particular, musical education becomes an essential means of free self-expression, sharing emotions, and overcoming inner experiences.

The article analyzes various forms and methods of musical activities such as singing, musical games, rhythmic movements, playing instruments, and listening to music as effective ways to enhance children's interest. It also highlights the importance of the teacher's individual approach, kindness, and patience, as well as the implementation of inclusive education principles to achieve better outcomes.

Keywords: preschool education, children with disabilities, music education, musical interest, musical and spiritual development, inclusive education, musical games, singing, rhythmic movements, musical instruments, pedagogical approach.

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish mamlakatimizda eng muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishi, qiziqishlarini rivojlantirish va jamiyatda o'z o'rnini topishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ham "Hech bir bola e'tibordan chetda qolmasligi kerak" deb ta'kidlab, barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish zarurligini alohida qayd etganlar.

So'nggi yillarda qator qonun va qarorlar qabul qilinib, maktabgacha ta'lim sifati oshirildi. Masalan, "**Ta'lim to'g'risida**"gi **Qonunda** har bir bolaning, jumladan imkoniyati cheklanganlarning ham, sifatli ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Shuningdek, "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"da bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos holda ularni rivojlantirish vazifalari belgilangan. **Prezident qarorlari va konsepsiyalarida** esa imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish, ularning ijtimoiy hayotga moslashuvini qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida o'rin berilgan.

Shunday hujjatlar asosida hozirda maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqaga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki musiqa bolalarga quvonch bag'ishlaydi, ularning qalbini tozalaydi, fikrlashini kengaytiradi va jamiyatda o'zini erkin tutishga yordam beradi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar uchun musiqa mashg'ulotlari o'zini ifoda etish, his-tuyg'ularini bildirish va ijtimoiy hayotga yaqinlashishning eng yaxshi vositalaridan biridi

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning musiqiy didini shakllantirishda musiqani ongli ravishda idrok etish ko'zda tutiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy tarbiyaviy ishlar bolalarda bog'cha yoshidan boshlab olijanob fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bolalar bog'chalarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, barkamol inson bo'lib voyaga yetishishida xizmat qiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida kichkintoylar hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradilar. Ular yoshiga mos musiqiy asarlar tarbiyalanuvchilarda unutilmas taassurotlar qoldiradi, ma'naviy dunyosini boyitadi. Bolalar bog'chasida amalga oshiriladigan mehnat, hisob, atrofimizdagi olam kabi konkret mashg'ulotlarda bolalarning abstrakt fikrlash, mantiqiy xotira kuchi kabi qobiliyatlari o'sib borsa, musiqa mashg'ulotlarida obrazli fikrlashi, nutq madaniyati, musiqiy uquvi, go'zallikni his eta olish qobiliyati rivojlanib boradi.

Turli uslublardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqiy mashg'ulot kichkintoylarda badiiy nafasat zavqini uyg'otadi, musiqaga qiziqishini o'stiradi. Musiqa mashg'ulotlarini ilmiy metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib,

zamon talabiga mos ravishda olib borish bugungi kun bo'lajak musiqa rahbarlari oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifalarni musiqa mashg'ulotlarini o'qitishga doir metodik tavsiyalar, mashg'ulotlarning reja namunalari, bog'chalarda o'tkaziladigan ertaliklar, bayramlar, tadbirlar senariylari batafsil yoritilgan ushbu usuldan unumli foydalangan holda amalga oshirish mumkin, deb o'ylaymiz.

Kichkintoylarning musiqiy uquv va qobiliyatlari quyidagi faoliyatlardan iborat:

- musiqiy uquvi (musiqiy tovushlar baland-pastligini his etish qobiliyati);

- tembr uquvi (musiqiy tovushlarni bir-biridan farq qilish);

- ritm tuyg'usi (musiqaga mos harakat bajarish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlab, his etish va ifodalash). Bolalarning musiqiy qobiliyatlari musiqiy mashg'ulotlarning barcha elementlarini amalga oshirish jarayonida muntazam ravishda rivojlanib boradi.

Bolalar bog'chalarida olib boriladigan musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kichkintoylarni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish;

- musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularni hosil qilish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish;

- bolalarni musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblari bilan jo'r bo'lish faoliyatlari yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish;

- bolalar ovozi asrab tarbiyalash, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish va odatlantirish;

- musiqiy asarlardan zavq olishni, shu asosda musiqiy did va badiiy fikr yuritishni rivojlantirish;

- musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni o'yin va raqs shaklida ifoda etishga o'rgatish;

- musiqa mashg'ulotlarida bolalarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, milliy cholg'u sozlarimiz jo'rligida milliy musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishga o'rgatish;

- musiqa mashg'ulotlari mazmunini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan tadbirlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlar bilan ishtirok etish. Turli ertaliklar, konsertlar tashkil etish.

Musiqa mashg'ulotlarida bola hayotni, tevarak-atrofni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bog'chada musiqiy tarbiya ishlari badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy ravishda bog'langan holda amalga oshiriladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan musiqa mashg'uloti kichkintoylarda badiiy-estetik zavq uyg'otadi,

ularning his-tuyg'ularini shakllantiradi, ijodiy fikrlash qobiliyati va nuqtini o'stiradi. Bundan tashqari musiqiy o'yinlar va raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanik malakalarini shakllantirib, qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Bu bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan barcha musiqiy ta'lim, tarbiyaviy ishlar yosh avlodda olijanob fazilatlarni bog'cha yoshidan shakllantirishda nafosat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. "Musika rahbari tomonidan yaxshi tashkil etilgan musiqiy tarbiya bolalami barkamol inson bo'lib yetishishlariga ijobiy ta'sir etadi. Bu ishda bolalar bog'chasi pedagogik jamoasining ishtiroki va faolligi juda muhimdir"².

Bolalar bog'chalarida musika mashg'ulotlarini o'tkazishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, kichkintoylar qalbida nafosatga mehr uyg'otish, ularni barkamol inson qilib tarbiyalab, voyaga yetkazishdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda milliy musika ohanglari yordamida zaruriy bilim va ko'nikmalar tarkib toptiriladi. Bu mashg'ulotlardagi har bir faoliyat turi bolalarning musiqiy didini rivojlantiradi.

Musiqiy mashg'ulotlar oldiga qo'yilgan har qanday maqsad va vazifalarni amalga oshirish, avvalo, musika rahbarining pedagogik tayyorgarligiga bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Musika qadimdan tarbiya va davolash vositasi sifatida inson hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Sharq mutafakkirlari — Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiy asarlarida musiqaning ruhiy-ma'naviy rivojga ta'siri, inson qalbini poklovchi va tarbiyalovchi kuchi haqida fikrlar bildirganlar. Forobiy musiqani inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi ilmiy asoslangan fan sifatida tahlil qilgan bo'lsa, Ibn Sino musiqaning davolashdagi ahamiyatini alohida qayd etgan.

XX asrda psixologiya va pedagogika fanida musiqaning shaxs rivojidadagi o'rni keng tadqiq etildi. Masalan, L.S. Vygotskiy musiqani bolaning hissiy rivojlanishini rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida baholaydi. J. Piaget musiqiy idrokni bolaning tafakkur va tasavvuri bilan bog'lab o'rganadi. Karl Orf esa o'zining mashhur "Orf pedagogikasi" orqali musiqiy o'yin, qo'shiq va ritmik mashqlarni uyg'unlashtirib, bolalarda qiziqish va ijodkorlikni rivojlantirish samarali usullarini ishlab chiqqan. Bugungi kunda ushbu yondashuv maktabgacha ta'lim muassasalarida keng qo'llanmoqda.

Xorijiy adabiyotlarda musiqaning rehabilitatsiya vositasi sifatida qo'llanilishi ham keng yoritilgan. J. Alvin, D. Bunt, T. Wigramlarning "Music Therapy" yo'nalishidagi tadqiqotlari musiqiy mashg'ulotlarning nogironligi bo'lgan bolalarda emotsional stressni kamaytirishi, nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishini

ko'rsatadi. Bunday tadqiqotlar musiqaning pedagogik emas, balki terapevtik jihatdan ham ahamiyatini tasdiqlaydi.

O'zbek olimlari ham maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida musiqiy tarbiyaning o'rni haqida qator tadqiqotlar olib borganlar. N. Yo'ldosheva va M. Ibragimova ishlarida musiqaning bolaning nutqini rivojlantirish, xotira va diqqatini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritilgan. S. Jo'raqulova esa musiqiy o'yinlarning bolaning ijtimoiylashuvi va emotsional rivojlanishidagi o'rniga alohida e'tibor qaratgan.

Shuningdek, zamonaviy metodik qo'llanmalarda musiqiy mashg'ulotlarning turli shakllari — qo'shiq aytish, musiqiy asboblarda chalish, ritmik harakatlar va musiqiy o'yinlarning bolaning estetik va ijodiy rivojlanishidagi o'rni keng tahlil qilinadi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda individual yondashuv, rag'batlantirish va mehribonlik asosiy metodik talablar sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, musiqiy tarbiya nafaqat bolalarning estetik didini shakllantiradi, balki ularning ruhiy-ma'naviy dunyosini boyitadi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi va jamiyatga moslashuvini yengillashtiradi. Ilmiy manbalarda, ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar uchun musiqa ijtimoiy integratsiya va o'zini ifoda etish vositasi sifatida alohida ta'kidlanadi.

Mazkur tadqiqot davomida imkoniyati cheklangan bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularning musiqiy-ma'naviy rivojlanishini o'rganish uchun turli usullardan foydalanildi. Avvalo, mavzuga oid kitoblar, ilmiy maqolalar va metodik qo'llanmalar o'rganilib, musiqaning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati haqida mavjud qarashlar tahlil qilindi.

Keyingi bosqichda maktabgacha ta'lim muassasasida musiqiy mashg'ulotlar jarayoni kuzatildi. Mashg'ulotlarda bolalarning qo'shiq aytish, musiqiy o'yinlarda qatnashish, ritmik harakatlarni bajarish va musiqiy asboblarda chalishga bo'lgan qiziqishlari kuzatilib, ularning emotsional holati qayd etildi. Shuningdek, pedagoglar va ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazilib, musiqaning bolaning xulqi, kayfiyati va ijtimoiy moslashuviga qanday ta'sir qilishi haqida ma'lumotlar olindi.

Tadqiqot davomida kichik tajriba-sinov ishlari ham o'tkazildi. Bunda bolalar guruhiga musiqiy mashg'ulotlarning turli shakllari qo'llanildi va natijalar oldingi holat bilan solishtirildi. Natijada musiqaning bolalarda qiziqish, o'zini erkin ifoda etish va ijtimoiy faollikni kuchaytirishga xizmat qilishi kuzatildi.

Olingan kuzatish va suhbatlar natijalari umumlashtirilib, ilmiy manbalardagi nazariy qarashlar bilan taqqoslandi. Tadqiqot davomida bolalarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va imkoniyatlari inobatga olindi.

Munozara. Tadqiqot natijalari musiqaning imkoniyati cheklangan bolalar uchun tarbiyaviy va rivojlantiruvchi omil ekanini yana bir bor tasdiqladi. L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “hissiy rivojlanish” nazariyasi va Karl Orf metodikasidagi musiqiy o‘yinlarning ahamiyati kuzatuvlarimizda o‘z isbotini topdi. Forobiy va Ibn Sino asarlarida musiqaning inson ruhiyatiga ijobiy ta’siri haqida bildirgan fikrlari hozirgi zamon ilmiy qarashlari bilan uyg‘un keladi. Demak, nazariy asoslar bilan amaliy kuzatishlar o‘rtasida to‘liq moslik mavjud.

Tajriba-sinov mashg‘ulotlari shuni ko‘rsatdiki, musiqiy faoliyatning turli shakllari (qo‘shiq aytish, ritmik harakatlar, musiqiy o‘yinlar, asboblardan foydalanish) bolalarda faollikni oshirdi va ularga o‘zini erkin ifoda etish imkonini berdi. Guruh bo‘lib kuylash va o‘yinlarda qatnashish esa ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirdi, bolalar bir-biri bilan muloqot qilishga, hamkorlikda ishlashga o‘rgandilar. Pedagoglarning mehribonlik, sabr-toqat va individual yondashuvi mashg‘ulotlarning samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Bu tajriba maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy mashg‘ulotlarni imkoniyati cheklangan bolalar uchun alohida metodik yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot davomida ayrim cheklovlar ham kuzatildi. Avvalo, barcha bolalarda musiqaga qiziqish bir xil darajada bo‘lmadi. Ba’zilar faol qatnashgan bo‘lsa, boshqalar ko‘proq passiv bo‘lib qolishdi. Bu esa individual qobiliyat va ruhiy-emotsional xususiyatlarning farqliligidan dalolat beradi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari cheklangan miqyosda, ya’ni bitta muassasa doirasida olib borildi. Kengroq natijalarga erishish uchun turli hududlarda, ko‘proq bolalar ishtirokida tajribalar o‘tkazish lozim. Yana bir muhim cheklov – musiqiy mashg‘ulotlar uchun zarur texnik vositalar va musiqa asboblarining yetishmasligi bo‘ldi. Bu esa mashg‘ulotlarning to‘liq samaradorligini biroz kamaytirganini ta’kidlash kerak.

Xulosa.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, musiqiy mashg‘ulotlar maktabgacha ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar tarbiyasida samarali vosita hisoblanadi. Musiqa nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki bolaning ruhiy-ma’naviy dunyosini boyitadi, uning dunyoqarashini kengaytiradi, nutqi va tafakkurini rivojlantiradi, ijtimoiy faol bo‘lishiga yordam beradi.

Musiqa jarayonida bolalar o‘zini erkin ifoda etadi, his-tuyg‘ularini boshqalar bilan bo‘lishadi, ichki kechinmalarini yengib o‘tishga intiladi. Qo‘shiq aytish, musiqiy o‘yinlar, ritmik harakatlar va asboblardan foydalanish orqali ularning qiziqishi ortib, ijodkorlik, diqqat, xotira va hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, guruh bo‘lib

mashg'ulotlarda qatnashish bolalarning ijtimoiylashuviga, tengdoshlar bilan muloqot qilishiga, jamoadagi o'rnini topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida shuningdek, pedagog shaxsining o'rnini ham alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Mehribonlik, sabr-toqat, individual yondashuv va inklyuziv ta'lim tamoyillarini amaliyotda qo'llash bolalarda musiqaga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi. Demak, metodik yondashuvdan tashqari, pedagogik mahorat ham asosiy omil hisoblanadi.

Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Musiqqa imkoniyati cheklangan bolalarda emotsional holatni yaxshilash, qiziqish uyg'otish va ijtimoiy faollikni oshirishda samarali vositadir.

Musiqiy mashg'ulotlarning turli shakl va usullari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'zini erkin ifoda etish va jamiyatga moslashuvini ta'minlaydi.

Pedagogning individual yondashuvi va inklyuziv ta'lim tamoyillarini qo'llash musiqiy tarbiyaning natijadorligini oshiradi.

Musiqiy mashg'ulotlarni yanada samarali tashkil etish uchun maxsus metodik qo'llanmalar yaratish, musiqiy asboblar va texnik vositalarni kengaytirish lozim.

Tadqiqot cheklangan miqyosda olib borilganligi sababli, kelgusida turli hududlarda va kengroq miqdordagi bolalar bilan tajribalar o'tkazish zarur.

Umuman olganda, musiqqa imkoniyati cheklangan bolajonlarning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni jamiyatga faol qo'shilishiga ko'maklashish va kelajak hayotga tayyorlashda muhim tarbiyaviy vosita ekanligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.G Nurullayev, Firdavs To'xtayev-[MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI](#). Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1, Tom-2,12, 8-15 betlar
2. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich, X.G Saidovna. [FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE MEANS OF UZBEK FOLK SONGS](#). International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515X
3. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI](#), International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30, Tom-5,1, 515-520 betlar

4. D.M Yusupovich, N.F. Gaybulloyevich- Milliy Musiqa San'ati Ravnaq Topishida O 'zbek Folklorining O 'Rni Va Ahamiyati- Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 2024/2/6, Tom-2,2, 4-8 betlar
5. Egamov Oxunjon Saidovich Nurullayev F.G- [BUXORO VOHASI FOLKLOR QO'SHIQLARI O'ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA](#), Confrencea - Virtual International Conferences, "International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education." [Vol. 1 No. 1 \(2024\)](#)
6. Istatov Muhridin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich- [MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://confrencea.org> January 30th, 2024, Confrencea 1 (1),74-78
7. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [SKRIPKA CHOLG'U ASBOBIGA BIR NAZAR. PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-76 | ISSUE-1\(2025\)](#)
8. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. [MUSIQA TO'GARAGLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA OID NAZARIY-PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK ASOSLAR. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ | INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL](#). Vol. 39 No. 1 (2025)
9. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich .[O'QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Vol. 75 No. 1 \(2025\): PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL | PEDAGOGS | PED | VOLUME-75 | ISSUE-1.](#)
10. Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. [FOLKLOR QO 'SHIQLARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA <https://confrencea.org> January 30th, 2024
11. Rustamov Feruz Tavakkal o'g'li, & Nurullayev Farrukh Gaybulloyevich. EDUCATION OF A CHILD BY MUSIC IN THE EARLY PERIOD OF LIFE. (2023). Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 22, 29–34. Retrieved from <https://sjird.journal-spark.org/index.php/sjird/article/view/863>

12. Usmanov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrukh Gaibulloyevich. THE ROLE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN THE GROWTH OF THE CONSCIOUSNESS OF THE STUDENT YOUTH AND NATIONAL THINKING. (2023). *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 1(4), 5-9.
13. Usmonov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. O'Quvchilarni Ma'naviy-Axloqiy Shakllantirishda O'zbek Xalq Qo'Shiqlari Ahamiyati. *Progress Annals: Journal of Progressive Research* | Vol. 1 No. 8 (2023): Progress Annals. Published: 2023-12-06
14. X.M. Ashurmuxamadovna, N.F. Gaybulloyevich MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY FAOLIYATI. (2023). *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(4), 14-19. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/282>
15. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. "O'ZBEK MUSIQASI TARIXI" FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. *Ilm-fan va texnologiyalar*. 2023 №2(1) Наука и технологии
16. Habibullayeva G.H., Nurullayev F.G. O'ZBEK FOLKLOR QO'SHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. *Inter education & global study* 2023
17. Z.X Xamrayev, F.G Nurullayev - O 'ZBEK ESTRADA SAN'ATINING XALQ MADANIY HAYOTIDA TUTGAN O 'RNI - Экономика и социум, 2023 № 4-2 (107) стр 325-328
18. Hamdamova Sitora Rustamova, Nurullaev Farrukh Gaibullayevich-MUSIC AS A TOOL FOR RAISING CHILDREN EARLY LIFE. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*. 2022/11/29 Vol.9, 422-427
19. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев-Значение Фольклёрной Музыки В Воспитание Детей. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*. 2022/11/24. Vol 12. 189-193
20. Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi, Nurillayev Farrux-Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida. *Ta'lim fidoyilari, OOO «Research and publications»* 2022. Vol 24, № 45, 73-83
21. Madaminova Muyassarxon, Nurullayev F.G.-UMUMIY ÓRTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TARBIYASI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2022 Special issue, 130-134, OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY»

- 22.Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса. SCIENTIFIC PROGRESS.2021.Vol 2, №4(pp. 588-593)
- 23.Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
- 24.Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
- 25.Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
- 26.Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
- 27.Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
- 28.Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
- 29.Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.
- 30.Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.